




**Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi**

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



**2023- YIL
yanvar-fevral**

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
65,9 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
892,6
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
2 646,0
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
60,6 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
112,0 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
109,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 646,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **627,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2 646,0	112,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	142,5	128,8
Moliyaviy xizmatlar	577,4	130,1
Transport xizmatlari	445,8	106,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	381,2	100,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	63,3	108,9
Savdo xizmatlari	787,6	103,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	66,9	103,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	126,7	160,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	63,4	109,9
Ijara xizmatlari	41,8	90,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	74,9	100,5
Shaxsiy xizmatlar	165,6	97,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	24,0	93,4
Boshqa xizmatlar	66,1	107,0

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar-fevral oyida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **160,4 %**. Nisbatan past Me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **97,8 %**.




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

2023-yilning yanvar-fevral oyida transport xizmatlari hajmi **445,8** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **106,0** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **16,8** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oyida)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **85,5** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **90,7** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,8 %** ni tashkil etib, bu **787,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning hajmi **671,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2023-y.
yanvar-
fevral

787,6 mlrd.
so'm



671,7 mlrd.
so'm



Hajmning
o'sishi

103,8 %



108,5 %

2022-y.
yanvar-
fevral


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **74,8 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,8 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,4 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar-fevral oyida)



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oyida chakana savdo ulushi **80,3 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-fevral oyida)

2023- yil yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **577,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oyida ularning hajmi **399,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning ulushi **18,8** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **178,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **130,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida ularning o'sish sur'ati **144,1** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral- dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,8 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,0 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oyida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **3,0 %** ni tashkil etgan .

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y.
yanvar-fevral

107,2
mlrd. so'm

119,4%

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

35,3 mlrd. so'mga

2023- y.
yanvar-fevral

142,5
mlrd. so'm

128,8 %


5,4 %

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar-fevral oyida ularning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,1 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

160,4 %

2022- yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

100,1 %

2022- y. yanvar-fevral

126,7
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

80,2
mlrd. so'm

2023- y. yanvar-fevral

4,8 %

Umumiy
hajmdagi ulushi

3,8%

2023- yilning yanvar-fevral oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **126,7** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,8 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **160,4 %** ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-fevral



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral


2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **13,9** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



**2022- y.
yanvar-
fevral**

**2023- y.
yanvar-
fevral**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2023- yil yanvar-fevral oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **82,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **80,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Namangan viloyati	2 624,0	112,0	114,8
Namangan sh.	1 092,8	115,7	117,4
tumanlar:			
Mingbuloq	97,1	109,6	111,0
Kosonsoy	132,7	110,7	112,1
Namangan t.	137,0	111,1	112,8
Norin	115,3	110,3	113,7
Pop	171,0	108,6	122,5
To'raqo'rg'on	170,6	111,7	110,9
Uychi	155,6	108,0	113,4
Uchqo'rg'on	103,4	109,2	112,4
Chortoq	143,1	110,2	109,7
Chust	173,9	107,4	114,1
Yangiqo'rg'on	131,5	109,0	112,3


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar-fevral oyida)



2023- yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **41,3** % (2022- yilning yanvar-fevral oyida – **40,0** %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7** % (2022- yilning yanvar-fevral oyida – **3,8** %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi



2023- yilning yanvar-fevral oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **892,6** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022 - yilning yanvar-fevral oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **730,8** ming so'mni tashkil etgan.



109,5%

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,4 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi




2023- yil yanvar-fevral oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **60,6 %** ni tashkil etdi

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- yanvar-fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **78,6 %** ga to'g'ri keldi.

**Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00**



Dastlabki ma'lumotlar